




Xorazm viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2021- yil yanvar-oktabr)

**Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha
sanoat ishlab chiqarish hajmi,
mlrd. so'm, fizik hajm indeksi, % da**



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida viloyat sanoat korxonalari tomonidan 9 245,1 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020 - yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 114,3 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 96,117 % ni tashkil etdi.




Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida 15,4 % ga o'sishning kuzatilishi bo'lsa, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida – 31,7 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda – 9,4 % ga kamayishi kuzatildi.

***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi** – ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1,8 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,019 % ini tashkil etdi. 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 8 886,1 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 96,117 % ini tashkil etdi. O'z navbatida sanoatning mazkur tarmog'ida eng yuqori ulushga ega avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish 43,8 %, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish 23,2 %, oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar ishlab chiqarish 15,9 % ni tashkil etganligini ko'rish mumkin.



Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish ulushi - 43,8 %.




To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi - 23,2 %.



Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar ishlab chiqarish ulushi -15,9%.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish sanoati




● Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Joriy yilning yanvar-oktabr oylarida elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 266,3 mlrd. so'm (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,881 %) ni tashkil etdi. Shu bilan birga sanoat ishlab chiqarishning fizik indeksi 100,0 % ni tashkil qildi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 90,9 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,983 %) tashkil etdi.

Mazkur tarmoqda eng yuqori ulushni suv yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash – 69,7 %, chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish – 30,1 % tashkil etdi.



● Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish



Ishlab chiqaradigan sanoati (qayta ishlash sanoati) da yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish (natura shaklda)

Sanoat mahsulotlari	2021 - yil yanvar-oktabr	2020 - yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Gidroelektr stansiyalari ishlab chiqargan elektr energiyasi – mln. kVts:	138,9	201,6	-62,7
Issiqlik energiyasi – ming Gkal:	76,5	71,2	5,3
Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobillarsiz) – dona:	45 644,0	44 076,0	1 568
Maxsus yengil avtomobillar – dona:	12 571,0	7 061,0	5 510
Aroq – ming litr:	40,8	336,0	-295,2
Uzum vinosi yoki uzum turupini disterlash natijasida olingan spirt nastoykalari konyak spirtidan tashqari – ming litr:	5,6	11,1	-5,5
Tarkibida 15 % dan ko‘p spirt bo‘lgan boshqa tabiiy uzum vinolari – ming litr:	368,0	692,0	-324
Yumshoq bug‘doy va spelta uni – tonna:	72 382,1	77 651,0	-5268,9
Tozalangan o‘simlik yog‘i – tonna:	18 917,6	9 308,2	9 609,4
Xo‘jalik sovuni – tonna:	3 581,6	2 955,0	626,6
Paxta tolasi – tonna:	46 622,3	41 850,7	4 771,6
Paxta chigiti – tonna:	92 656,1	67 760,8	24 895,3

Sanoat mahsulotlari	2021 - yil yanvar-oktabr	2020 - yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Paxtadan yigirilgan ip – tonna:	24 534,8	20 611,6	3 923,2

**Tarkibida 85 % yoki undan ko‘p
paxta tolasi bo‘lgan ip gazlamalar
– ming kv.m:**


22 298,0

23 472,0

-1174

Yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, gidroelektr stansiyalari ishlab chiqargan elektr energiyasi 62,7 mln. kVts. ga, aroq 295,2 ming litrga, uzum vinosi yoki uzum turupini disterlash natijasida olingan spirt nastoykalari, konyak spirtidan tashqari 5,5 ming litrga, tarkibida 15 % dan ko‘p spirt bo‘lgan boshqa tabiiy uzum vinolari 324 ming litrga, yumshoq bug‘doy va spelta uni 5 268,9 tonnaga, tarkibida 85 % yoki undan ko‘p paxta tolasi bo‘lgan ip gazlamalar 1 174 ming kv.m.ga kamaygan.

Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo‘yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da



2020 - yil yanvar-oktabr oylarida o‘rta-yuqori texnologiyali ishlab chiqarish 48,1 % ni tashkil qilib, 2021 - yil yanvar-oktabr oylarida bu ko‘rsatkich 46,5 % ga, o‘rta-quyi texnologiyali ishlab chiqarish 7,2 % dan 6,9 % ga kamaygan bo‘lsa, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish 0,13 % dan 0,16 % ga, quyi texnologiyali ishlab chiqarishning 40,0 % dan 42,6 % ga o‘ishi kuzatildi.

Shuningdek, viloyat sanoatida yuqori texnologiyali tarmoqda 15,0 mlrd. soʻmlik (2020 - yil yanvar- oktabr oylarida 9,2 mlrd. soʻm), oʻrta-yuqori texnologiyali tarmoqda 4 297,4 mlrd. soʻmlik (3 533,5 mlrd. soʻm), oʻrta-quyi texnologiyali tarmoqda 633,4 mlrd. soʻmlik (527,3 mlrd. soʻm), quyi texnologiyali tarmoqda 3 940,4 mlrd. soʻmlik (2 936,7 mlrd. soʻm) mahsulot ishlab chiqarilgan.



**Xorazm viloyati hududlari kesimida
sanoat ishlab chiqarish hajmlari**

Shahar va tumanlar nomi	2021 - yil yanvar-oktabr mlrd. soʻm	Fizik hajm indeksi, % da
Xorazm viloyati	9 245,1	114,3
Urganch shahri	1 672,2	110,4
Xiva shahri	115,3	107,1
<i>shundan tumanlar,</i>		
Bogʻot tumani	339,9	112,8
Gurlan tumani	358,8	116,6
Qoʻshkoʻpir tumani	269,5	144,7
Urganch tumani	587,4	118,6
Hazorasp tumani	266,7	113,1
Tuproqqalʼa tumani*	4 211,3	107,2
Xonqa tumani	442,0	104,6
Xiva tumani	183,8	94,6
Shovot tumani	490,3	111,5
Yangiariq tumani	126,5	66,5
Yangibozor tumani	181,4	116,2



Yuqoridagi jadvalning tahlili shuni koʻrsatmoqdaki, Tuproqqalʼa tumani, Urganch shahri, Bogʻot, Gurlan, Qoʻshkoʻpir, Urganch, Yangibozor, Shovot, Hazorasp va Xonqa tumanlari sanoati yuqori darajada rivojlangan hududlar hisoblanadi. Ushbu shahar va tumanlarda asosan avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish, toʻqimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish,

kiyim ishlab chiqarish, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va qurilish materiallari ishlab chiqarish faoliyatlari yuqori darajada rivojlangan.

Xorazm viloyatida ishlab chiqarish hajmida hududlar sanoat mahsulotlarining ulushi, fizik hajm indeksi, % da

Shahar va tumanlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida, 2020 - yil yanvar-oktabrga nisbatan Qo'shko'pir tumanida 144,7 %, Urganch tumanida 118,6 %, Gurlan tumanida 116,6 %, Yangibozor tumanida 116,2 %, Hazorasp tumanida 113,1 %, Bog'ot tumanida 112,8 %, Shovot tumanida 111,5 %, Urganch shahri 110,4 %, Tuproqqal'a tumanida 107,2 %, Xiva shahri 107,1 %, Xonqa tumanida 104,6 % sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada o'sishi kuzatildi.

SANOAT ISHLAB CHIQARISH FIZIK HAJM INDEKSI
2020 - YIL YANVAR-OKTABR OYLARIGA NISBATAN, % da



Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Tuproqqal'a tumani (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 45,5 %), Urganch shahri (18,1 %), Urganch (6,3 %), Shovot (5,3 %), Xonqa (4,8 %), Gurlan (3,9 %), Bog'ot (3,7 %), Qo'shko'pir (2,9 %) hamda Hazorasp (2,9 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Yangibozor tumani (2,0 %), Yangiariq tumani (1,4 %) va Xiva shahri (1,2 %) ga to'g'ri kelmoqda.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotini ishlab chiqarish (mlrd. so'm)


Iqtisodiy faoliyat turlari:	2021 - yil yanvar-oktabr	2020 - yil yanvar-oktabr
Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi	9 245,1	7 347,5
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	1,8	1,5
<i>ulardan:</i>		
Tog'-kon sanoatiga bog'liq boshqa faoliyat	1,8	1,5
Ishlab chiqaradigan sanoat	8 886,1	7 006,7
<i>undan:</i>		
Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	1199,0	1041,6
Ichimliklar, tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	268,9	261,3
To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	2144,0	1402,7
Kiyim ishlab chiqarish	78,5	57,3
Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	5,3	5,0
Yog'och va po'kak buyumlar, poxol va to'qish uchun materilallari, ishlab chiqarish	24,7	22,7
Qog'oz va qog'oz mahsulotlarini ishlab chiqarish	98,1	46,6
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	1,0	1,2

Iqtisodiy faoliyat turlari:	2021 - yil yanvar-oktabr	2020 - yil yanvar-oktabr
Neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	0,3	0,4
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	23,3	39,6
Asosiy farmasevtika	14,7	8,8
Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	79,1	73,3
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	299,4	215,8
Metallurgiya sanoati	29,6	47,6
Mashina va uskunalardan tashqari tayyor buyumlar ishlab chiqarish	146,9	152,9
Kompyuter va elektron optikali mahsulotlar ishlab chiqarish	0,3	0,4
Elektr uskunalari ishlab chiqarish	19,2	20,1
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalari ishlab chiqarish	205,2	14,3
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	4 049,7	3 459,5
Mebel ishlab chiqarish	36,3	24,9
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	84,6	73,5
Mashina va uskunalarini ta'mirlash va o'rnatish hamda tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	78,0	37,4
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	266,3	277,6
Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish	90,9	61,7



Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash, kichik biznes subyektlari tomonidan zamonaviy texnologiyalar olib kelinishi natijasida, viloyatda 5 485,9 mlrd. so'mlik xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarilib, 2020 - yilning yanvar- oktabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 109,0 % ni tashkil etdi.



Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda oziq-ovqat mahsulotlari 1 268,7 mlrd. so'mni, alkogol ichimliklar 5,0 mlrd. so'mni va 4 212,2 mlrd. so'mlik nooziq-ovqat mollari ishlab chiqarilib, o'tgan 2020 - yilning yanvar- oktabr oylariga nisbatan mos ravishda o'sish sur'ati 107,9 %, 30,5 % va 109,7 % ni tashkil qildi va jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 59,3 % ni (2020 - yil yanvar- oktabr oylarida 68,5 %) tashkil qildi.

Nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda yengil sanoat mahsulotlari va kiyim ishlab chiqarish 408,8 mlrd. so'mni, avtomobil ishlab chiqarish 3 134,4 mlrd. so'mni tashkil qilgan va 669,0 mlrd. so'mlik boshqa mahsulotlar ishlab chiqarilgan.



Xorazm viloyati bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati (2021 – yilning yanvar-oktabr oylarida)

Shahar va tumanlar nomi	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2020 - yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, % da
Xorazm viloyati	5485,9	100,0	109,0
Urganch shahri	817,8	14,9	115,0
Xiva shahri	94,0	1,7	126,3
<i>shundan tumanlar,</i>			
Bog'ot tumani	170,3	3,1	132,6
Gurlan tumani	132,4	2,4	99,9
Qo'shko'pir tumani	79,7	1,5	113,5
Urganch tumani	241,1	4,4	126,4
Hazorasp tumani	75,8	1,4	111,2
Tuproqqal'a tumani	3258,3	59,4	104,8
Xonqa tumani	278,0	5,1	112,8
Xiva tumani	78,6	1,4	123,6
Shovot tumani	116,0	2,1	103,6
Yangiariq tumani	67,6	1,2	105,8
Yangibozor tumani	76,3	1,4	119,7

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat bo'yicha jami hajmidagi eng yuqori ulushi Tuproqqal'a tumaniga to'g'ri kelib – 59,4 % ni, Urganch shahrida 14,9 % ni, Xonqa tumanida 5,1 % ni, Urganch tumanida 4,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (109,0 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Bog'ot tumanida

(132,6 %), Urganch tumanida (126,4 %), Xiva shahrida (126,3 %), Xiva tumanida (123,6 %), Yangibozor tumanida (119,7 %), Urganch shahrida (115,0 %), Qo'shko'pir tumanida (113,5 %), Xonqa tumanida (112,8 %) va Hazorasp tumanida (111,2 %) qayd etildi.



**Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
(2021 - yilning yanvar-oktabr oylarida)**

Shahar va tumanlar nomi	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2020 - yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, % da
Xorazm viloyati	1268,7	100,0	107,9
Urganch shahri	465,6	36,7	109,8
Xiva shahri	26,8	2,1	86,7
<i>shundan tumanlar,</i>			
Bog'ot tumani	113,1	8,9	121,6
Gurlan tumani	79,0	6,2	104,1
Qo'shko'pir tumani	35,4	2,8	108,2
Urganch tumani	139,8	11,0	112,1
Hazorasp tumani	40,0	3,2	117,6
Tuproqqal'a tumani	16,7	1,3	102,6
Xonqa tumani	168,5	13,3	106,4
Xiva tumani	32,9	2,6	79,7
Shovot tumani	67,6	5,3	93,5
Yangiariq tumani	32,7	2,6	97,8
Yangibozor tumani	50,6	4,0	128,9

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Urganch shahriga to'g'ri kelib – 36,7 % , shuningdek, Xonqa tumanida 13,3 %, Urganch tumanida 11,0 %, Bog'ot tumanida 8,9 % ni tashkil etdi. Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Yangibozor tumanida (128,9 %), Bog'ot tumanida (121,6 %), Hazorasp tumanida (117,6 %), , Urganch tumanida (112,1 %), Urganch shahrida (109,8 %) va Qo'shko'pir tumanida (108,2 %) kuzatildi.



**Shahar va tumanlar bo'yicha noziq-ovqat mahsulotlari
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
(2021 - yilning yanvar-oktabr oylarida)**

Shahar va tumanlar nomi	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2020 - yil yanvar-oktabr nisbatan, % da
Xorazm viloyati	4212,2	100,0	109,7
Urganch shahri	347,2	8,2	128,2
Xiva shahri	67,2	1,6	154,6
<i>shundan tumanlar,</i>			
Bog'ot tumani	57,2	1,4	161,7
Gurlan tumani	53,4	1,3	94,3
Qo'shko'pir tumani	44,3	1,0	118,1
Urganch tumani	101,3	2,4	153,4
Hazorasp tumani	35,8	0,8	104,8
Tuproqqal'a tumani	3 241,6	77,0	104,9
Xonqa tumani	109,4	2,6	124,4
Xiva tumani	45,7	1,1	204,3
Shovot tumani	48,5	1,2	122,0
Yangiariq tumani	35,0	0,8	114,6
Yangibozor tumani	25,6	0,6	105,0

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Tuproqqal'a tumaniga to'g'ri keldi (77,0 %), shuningdek, Urganch shahrida 8,2 % ni, Xonqa tumanida 2,6 % ni va Urganch tumanida 2,4 % ni tashkil etdi.


Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (109,7 %) darajasidan yuqori ko'rsatkichni Xiva shahri (231,7 %), Bog'ot tumani (161,7 %), Urganch tumani (153,4 %), Urganch shahri (128,2 %), Xonqa tumani (124,4 %), Shovot tumani (122,0 %) Qo'shko'pir tumani (118,1 %) va Yangiariq tumani (114,6 %) tashkil qildi.



Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati (2020 - yil yanvar- oktabr oylariga nisbatan, % da)

Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish 2020 - yil yanvar- oktabr oylariga nisbatan Bog'ot tumanida (132,6 %), Urganch tumanida (126,4 %), Xiva shahrida (126,3 %), Xiva tumanida (123,6 %), Yangibozor tumanida (119,7 %), Urganch shahrida (115,0 %), Qo'shko'pir tumanida (113,5 %), Xonqa tumanida (112,8 %), Hazorasp tumanida (111,2 %), Yangiariq tumanida (105,8 %) Tuproqqal'a tumanida (104,8 %) va Shovot tumanida (103,6 %) sezilarli darajada o'sgan.

Pasayish Gurlan tumanida (99,9 %) kuzatildi.





**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari
va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish**
(2021 - yil yanvar- oktabr oylarida, ming so'm)

Shahar va tumanlar nomi	Sanoat mahsulotlari	2020 - yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, % da	Iste'mol mahsulotlari	2020 - yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, % da
Xorazm viloyati	4855,9	112,6	2 881,5	107,4
Urganch sh.	11 488,4	109,3	5 618,6	113,9
Xiva sh.	1 226,0	105,4	999,5	124,3
shundan tumanlar,				
Bog'ot	2 028,7	110,9	1 016,5	130,4
Gurlan	2 387,0	115,0	881,0	98,6
Qo'shko'pir	1 545,0	142,9	456,8	112,1
Urganch	2 896,3	116,3	1 189,1	123,9
Hazorasp	1 350,7	111,0	383,9	109,0
Tuproqqal'a	76 191,6	107,1	58 950,9	104,8
Xonqa	2 333,6	102,9	1 467,3	111,0
Xiva	1 240,7	93,1	530,7	121,5
Shovot	2 840,8	109,9	672,2	102,1
Yangiariq	1 074,0	65,5	573,8	104,3
Yangibozor	2 049,6	114,7	861,6	118,1

Yuqoridagi tahliliy jadvalga asosan, joriy yilning yanvar- oktabr oylarida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish viloyat bo'yicha 4 855,9 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 112,6 % darajada kuzatildi. Shahar va tumanlar kesimidagi tahlil shuni ko'rsatmoqdaki,


2020- yil yanvar- oktabr oylarida Urganch shahrida 9 012,7 ming soʻmdan 11 488,4 ming soʻmga, Xiva shahrida 1 116,7 ming soʻmdan 1 226,0 ming soʻmga, Bogʻot tumanida 1 463,3 ming soʻmdan 2 028,7 ming soʻmga, Gurlan tumanida 1 641,2 ming soʻmdan 2 387,0 ming soʻmga, Qoʻshkoʻpir tumanida 796,8 ming soʻmdan 1 545,0 ming soʻmga, Urganch tumanida 1 664,6 ming soʻmdan 2 896,3 ming soʻmga, Hazorasp tumanida 1 023,2 ming soʻmdan 1 350,7 ming soʻmga, Tuproqqalʼa tumanida 65 133,9 ming soʻmdan 76 191,6 ming soʻmga, Xonqa tumanida 2 119,6 ming soʻmdan 2 333,6 ming soʻmga, Xiva tumanida 1 142,3 ming soʻmdan 1 240,7 ming soʻmga, Shovot tumanida 2 310,4 ming soʻmdan 2 840,8 ming soʻmga, Yangibozor tumanida 656,1 ming soʻmdan 2 049,6 ming soʻmga oshganligi kuzatildi. Sanoati rivojlangan Tuproqqalʼa tumanida (76 191,6 ming soʻm), Urganch shahrida (11 488,4 ming soʻm) aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish oʻrtacha viloyat darajasi koʻrsatkichidan (4 855,9 ming soʻm) yuqoriligi kuzatilgan.

Aholi jon boshiga isteʼmol mahsulotlari ishlab chiqarilishi viloyat boʻyicha 2 881,5 ming soʻmni tashkil qilib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 107,4 % ga oʻsishi kuzatildi. Shahar va tumanlar kesimidagi tahlil shuni koʻrsatmoqdaki, 2020 - yil yanvar-oktabr oylarida Urganch shahrida 4 934,9 ming soʻmdan 2021 - yil yanvar-oktabr oylarida 5 618,6 ming soʻmga, Xiva shahrida 804,4 ming soʻmdan 999,5 ming soʻmga, Bogʻot tumanida 779,8 ming soʻmdan 1 016,5 ming soʻmga, Qoʻshkoʻpir tumanida 407,5 ming soʻmdan 456,8 ming soʻmga, Urganch tumanida 959,4 ming soʻmdan 1 189,1 ming soʻmga, Hazorasp tumanida 352,1 ming soʻmdan 383,9 ming soʻmga, Tuproqqalʼa tumanida 56 253,7 ming soʻmdan 58 950,9 ming soʻmga, Xonqa tumanida 1 321,6 ming soʻmdan 1 467,3 ming soʻmga, Shovot tumanida 658,5 ming soʻmdan 672,2 ming soʻmga, Yangiariq tumanida 550,4 ming soʻmdan 573,8 ming soʻmga, Yangibozor tumanida 729,3 ming soʻmdan 861,6 ming soʻmga oʻsgani kuzatildi. Sanoati rivojlangan Tuproqqalʼa tumanida (58 950,9 ming soʻm), Urganch shahrida (5 618,6 ming soʻm) aholi jon boshiga isteʼmol mahsulotlari ishlab chiqarilishning oʻrtacha viloyat darajasi koʻrsatkichidan (2 881,5 ming soʻm) yuqoriligi kuzatilgan.



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi (2021- yil yanvar- oktabr oylarida, % da)

Viloyatda yanvar-oktabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2 202,3 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 23,8 % ni tashkil etdi. Shahar va tumanlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida Tuproqqalʼa tumani (4,4 %), Shovot tumani (18,8 %), Urganch shahri (23,8 %) va Qoʻshkoʻpir tumanida (28,8 %) kichik biznes subyektlari ulushining kamligini mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Xiva shahri (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100 %), Xiva tumani (100 %), Yangibozor tumani (100 %), Yangiariq tumani (100,0 %) Urganch tumani (52,3 %), Bogʻot tumani (48,2 %), Xonqa tumani (38,6 %), Gurlan tumani (33,6 %), Hazorasp tumani (30,0 %), Qoʻshkoʻpir tumani (28,8 %), Urganch shahri (23,8 %) hissasiga toʻgʻri kelgan.




Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1 174,5 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishda tutgan ulushi 12,7 % ni tashkil etdi.




Viloyatda faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari (2021- yil 1-noyabr holatiga koʻra)

Viloyatda 2021- yilning 1- noyabr holatiga, 4 218 ta sanoat korxonalari faoliyat koʻrsatmoqda, shundan 852 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 20,2 %) Urganch shahriga, 500 tasi (11,9 %) Urganch tumaniga, 369 tasi (8,7 %) Xonqa tumaniga, 365 tasi (8,7 %) Xiva shahriga toʻgʻri kelmoqda.



2021 - yil yanvar – oktabr oylarida viloyatda 836 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi. Ulardan 133 tasi Urganch shahrida, 100 tasi Hazorasp tumanida, 89 tasi Urganch tumanida, 78 tasi Xonqa tumanida, 74 tasi Bogʻot tumanida, 62 tasi

Qo'shko'pir tumanida, 57 tasi Shovot tumanida, 53 tasi Xiva shahrida tashkil etilgan.



Xorazm viloyati statistika boshqarmasi

Sanoat statistikasi bo'limi

Aloqa telefoni: (62) 224-64-99